

BOSHLANGICH SINIF OQUVCHILARIDA YOSH KITOBXONLIKNI TARGIB QILISH VA RIVOJLANTIRISH USULLARI

Muzaffarova Shahlo Suvonovna

Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani 64-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlangich sinfdan boshlab oquvchilarni kitob oqishga undash, bolalarga yoshiga mos keladigan, ezgu goyaga yetaklaydigan asarlarni tavsiya qilish, kitob oqishda bobo-buvilarning orni kabi fikrlar keltiriladi.

Kalit sozlar: Manaviy immunitet, 5tashabbus, kompyuter texnologiyasi, prezident sovgasi, kitobxonlik korik tanlovi, mafkuraviy immunitet, bobo-buvilar tarbiyasi.

Turli ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi dunyo manzaralarida yoshlarimizning ma'naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bosh vaqtini mazmunli otkazish har qachongidan ham dolzarbroq ekanini zamonning ozi korsatib turibdi. Shu bois prezident tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbus muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, davlat rahbari ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yolg'a qoyish boyicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. Birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yonaltirilgan. Uchinchi tashabbus aholi va yoshlar ortasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan. Tortinchi tashabbus yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular ortasida kitobxonlikni keng targib qilish boyicha tizimli ishlarni tashkil etishga yonaltirilgan. Beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi. Prezidentning joriy yilda Sirdaryo hamda Namangan

viloyatlariga qilgan amaliy tashrifi davomida mazkur hududlardagi tuman va shahar kutubxonalariga bir necha yuz ming nusxada badiiy adabiyotlar yetkazib berildi. Ma'rifat karvoni tashkil etildi. Yoshlar uchun 25 ming dona kitob, 80 turdagi sport jihozlari va musiqa asboblari yetkazib berildi. Mazkur 5 tashabbus keng jamoatchilik tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Endilikda ushbu tajribani yurtimizning barcha hududlarida keng joriy qilish masalalari muhokama qilindi. Madaniyat vazirligi va Xalq ta'limi vazirligiga hokimliklar bilan birgalikda tuman va shaharlarda madaniyat markazlari va umumta'lim maktablarida yoshlarning qiziqishidan kelib chiqib, qoshimcha 1,5 mingta togarak tashkil etish vazifasi qoyildi. Tashabbuskor iste'dodli yoshlar va mahalliy homiylarni jalb etgan holda, madaniyat markazlarida badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va Yoshlar klublari tashkil qilish zarurligi ta'kidlandi. Taniqli san'atkor va iste'dodli ijodkorlarni tumanlardagi madaniy ishlarga komakchi sifatida biriktirish yaxshi natija berayotganini inobatga olib, bu tajribani butun mamlakatga yoyish boyicha korsatmalar berildi. Unga muvofiq, taniqli artistlar tuman va shaharlarga ijodiy maslahatchi sifatida biriktirilib, osha joylarda madaniyat va san'atni rivojlantirishga mas'ul boladi, tuman va shaharlar hokimlari esa ushbu ishlarga moddiy va tashkiliy jihatdan yordam beradi. Oliy va orta maxsus ta'lim hamda Xalq ta'limi vazirliklariga muayyan mavzular boyicha tarix darslarini muzeylar, tarixiy obidalar, qadamjo va teatrlarda sayyor otkazilishini tashkil qilish topshirildi. Xalqimiz va yosh avlodda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, kelajakda yetuk va barkamol avlodni yetishtirish maqsadida Prezidentimiz tashabbuslari bilan tashkil etilgan yosh kutubxonlik korik tanlovi ham, kitobni kop oqigan odam spark minishi mumkinligini isbotlab berdi. Kitobxonlikni bola maktabga qadam qoygandan boshlab rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun ham boshlangich sinflarda kitobxonlikni rivojlantirish uchun bolani yoshiga va saviyasiga mos keladigan kitoblarni tanlash lozim. Shuning uchun men oquvchilarni kitobga mehr qoyishlari uchun viloyat kutubxonasi boylab sayohatga olib chiqdim. Oquvchilar bu jarayonda turli xil kitoblar bilantanishib kelajakda ozlari qiziqqan soha boyicha kerakli malumot

va bilimla bilan tanishish imkoniyatiga ega bolishdi. Otmishda otgan buyuk ajdodlarimiz va ularning qilgan ishlari yosh avlodga qoldirgan buyuk merosini organish yosh avlodning burchi bolish bilan bir qatorda,ularning pand-nasihati va ilgari surgan goyalarini bilish uchun,ularning asarlaridan namunalar va gazallaridan parchalar yodlatib, yozuvchi yoki shoir bu sherida nima demoqchi degan savol bilan murojaat qilib ularni erkin fikrlashga,mustaqil fikr bildirishga undash lozim.Kitob oqigan boladan hech qachon yomonlik chiqmaydi.Badiiy asar oqigan oquvchi yaxshi va yomonni farqlash imkoniyatiga ega boladi.Bu jarayonda boshlangich sinflarda 1ta asarni,deylik,Botir tikuvchiertagini butun boshli sinfga bir haftaga oqishga berilsa,oquvchilar asarni mustaqil oqib kelishadi.Asar oqib tugatilgandan song,bir darsni shu ertakni tugatgan oquvchilar bilan savol-javoblar otqazishga sarflanadi,ularning bilim saviyasi sinovdan otqaziladi va faol oquvchilar taqdirlanadi. Oquvchilarni shoirlarning gozal baytlari bilan tanishdirish maqsadida,sherxonlik baxslarini sinf doirasida,yoki ikkta sinf ortasida otqazilsa juda sermaxsul otadi. Chunki,oquvchilar baxs-munozarani juda xush korishadi va faol qatnashishadi. Keyingi tavsiya yozuvchi yoki shoirlarni va ularni yozgan asarlari bilan togri joylashtirish ham juda zor usul hisoblanadi.Bunda katta doskaga yozuvchi yoki shoirlarni footosurati,boshqa tomoniga esa, ularning yozgan asarlarini chalkashtirib joylashtiriladi,oquvchilar ularning yozgan asarlari bilan togri joylashtirishlari lozim.Togri bajargan oquvchilar baholanadi. Boshlangich sinflarda yoki yosh oquvchilarda bobo-buvilarni tasiri juda muhim.Chunki,ular nabiralarini xuddi,niholni parvarishlagandek etibor bilan tarbiyalaydi. Shaxsan ozimning kuzatishlarim natijasida bobo-buvilar bilan tarbiyalangan aksariyat bolalarda kitob oqishga qiziqish juda erta uygonadi,Aksariyat bunday bolalarda tengdoshlariga nisbatan vaqtdan unumli foydalanish,bosh vaqtida kitob oqish holatlari juda kop uchraydi. Bu tabiiyki,hayotda juda katta marralarga erishishiga yordam beradi. Bunday mashhur insonlardan biri Alisher Fayz yoshligimda buvim maktabdan uyga kelish vaqtimni ham belgilab turardilar, bosh vaqt qoldi deguncha kitob oqirdim,agar maktabdan uyga vaqtida

kelmasam, jazolanar edim deb javob beradi. Va gapini davom ettirib, bu tanbehlar o'z natijasini bermay qolmadi deydi.

Xulosa ornida shuni takidlash joizki, kitob o'qigan insondan hech ham yomonlik chiqmaydi. Ularning dunyoqarashi keng, fikrlash doirasi yuksak boladi. Shuning uchun ham, Navoiy bobomiz kitob-beminnat ustoz, bilim va manaviyat yuksalishga erishishning eng asosiy manbayidir deb bejiz aytmaganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz - Toshkent: O'zbekiston, 2017.

2. PQ-3271-sonli qarori.

3. my.gov.uz.

4. edu.uz.

5. geogle.uz